Kalit so'zlar: globallashuv, xalqaro savdo munosabatlari, tadbirkorlik, ta'minot zanjirlarini boshqarish, intellektual texnologiyalar, barqaror raqobatbardoshlik, raqamli logistika, axborot oqimlarini integratsiyalash, texnologik konvergensiya, yopiq tsikl iqtisodiyoti, raqamli valyuta, inson kapitali, to'qimachilik sanoati.

Abstract. The rapid development of international trade relations in the context of globalization requires business entities to adopt qualitatively new approaches to supply chain management. This article examines the impact of intelligent technologies on sustainable competitiveness in international supply chains as a strategic factor in the development of international trade relations in entrepreneurship.

The study highlights the importance of customer orientation, digital logistics, integration of information flows, management innovations, human capital development, technological convergence, and the role of digital currencies in international settlements. The findings indicate that integrating intelligent technologies into the five key processes of supply chains — planning, procurement, production, distribution, and return — is a priority direction for expanding international trade relations and strengthening the sustainable competitive position of business entities.

Key words: globalization, international trade relations, entrepreneurship, supply chain management, intelligent technologies, sustainable competitiveness, digital logistics, integration of information flows, technological convergence, circular economy, digital currency, human capital, textile industry.

Аннотация. Быстрое развитие международных торговых отношений в условиях глобализации требует от бизнес-субъектов применения качественно новых подходов к управлению цепочками поставок. В данной статье исследуется влияние интеллектуальных технологий на устойчивую конкурентоспособность международных цепочек поставок как стратегического фактора развития международных торговых отношений в предпринимательстве.

В работе обоснована значимость клиентоориентированности, цифровой логистики, интеграции информационных потоков, управленческих инноваций, развития человеческого капитала, технологической конвергенции и цифровых валют в международных расчётах. Результаты исследования показывают, что интеграция интеллектуальных технологий в пять ключевых процессов цепочек поставок — планирование, закупку, производство, распределение и возврат — является приоритетным направлением расширения международных торговых отношений и укрепления устойчивой конкурентоспособности бизнес-субъектов.

Ключевые слова: глобализация, международные торговые отношения, предпринимательство, управление цепочками поставок, интеллектуальные технологии, устойчивая конкурентоспособность, цифровая логистика, интеграция информационных потоков, технологическая конвергенция, замкнутая экономика, цифровая валюта, человеческий капитал, текстильная промышленность.



KIRISH

XX-asrning 80-yillaridan boshlab ishlab chiqarish sohasida global tendensiya sifatida korxonalarning tovar taklifini xaridor ehtiyojlarining doimiy o'zgarishiga mos ravishda moslashuvchan boshqarish zarurati yuzaga keldi. Shu jarayonda ta'minot zanjirlarida raqobat ustunligini ta'minlashning muhim omili sifatli xom ashyo va materiallarni o'z vaqtida yetkazib berishdan iborat bo'lib, "Aynan o'z vaqtida" (Just-in-Time) konsepsiyasi shakllana boshladi. Ushbu yondashuv biznes jarayonlarini boshqarishni takomillashtirish zaruratini kuchaytirdi va natijada ta'minot zanjirlarini rejalashtirishga mo'ljallangan analitik tizim — Advanced Planning and Scheduling (APS) tizimlari vujudga keldi. Mazkur tizimlar hisobga olish tizimlaridan olingan ma'lumotlarni tahlil qilish asosida ta'minot zanjirining operatsion jarayonlarini optimallashtirish imkonini beradi.

XX-asrning 80-yillarida xalqaro savdo hajmlarining keskin oshishi ta'minot zanjirlarini boshqarishda tizimli va situatsion yondashuvlarning rivojlanishiga turtki berdi. APS tizimlarining funksional imkoniyatlari kengayib, ular barcha cheklovlarni hisobga olgan holda modellashtirish va stsensiy tahlilini amalga oshira oladigan ta'minot zanjirlarini rejalashtirish tizimlari — Supply Chain Planning (SCP) tizimlariga transformatsiyalandi.

Ta'minot zanjirlarini boshqarish konsepsiyasini to'liq amalga oshirish uchun barcha biznes jarayonlarini avtomatlashtiruvchi va optimallashtiruvchi axborot tizimlariga ehtiyoj ortdi. Bu esa ta'minot zanjirlarini bajarish tizimlari — Supply Chain Execution (SCE) — ning shakllanishi va rivojlanishiga zamin yaratdi. Ushbu tizimlar logistika operatsiyalarini samarali boshqarish, real vaqt rejimida nazorat qilish va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

XX-asrning 90-yillari boshlarida menejmentda tarkibiy yondashuv ustuvor ahamiyat kasb eta boshladi. Bu esa ta'minot zanjirlarini boshqarish tizimlarining integratsiyalashuvi orqali yangi model — Supply Chain Management (SCM) — ning shakllanishiga olib keldi. Ushbu model kompaniyalar uchun strategik boshqaruv tizimini yaratib, mahsulotlarni minimal xarajatlar bilan, belgilangan vaqtda va aniq manzilga yetkazib berishni ta'minlashga qaratilgan.

2000-yillardan boshlab ta'minot zanjirlarini boshqarishda axborot yondashuvi yetakchi o'rinni egalladi. Jahon savdosi va logistika tizimlaridagi integratsion jarayonlar natijasida integratsiyalashgan boshqaruv tizimlari — Integrated Supply Chain Management (ISCM) — shakllandi. 2010-yillarda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi esa intellektual ta'minot zanjirlari — Intelligent Supply Chain (ISC) — ning vujudga kelishiga olib keldi. Ushbu tizimlar sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (Big Data) va raqamli texnologiyalar asosida ishlaydi hamda zamonaviy global iqtisodiyot sharoitida alohida ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Britaniyalik logistika va marketing professori Martin Christopher ta'minot zanjirlarini boshqarishga oid fundamental tadqiqotlarida haqiqiy raqobat alohida korxonalar o'rtasida emas, balki ta'minot zanjirlari o'rtasida kechishini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Uning ilmiy ishlari ta'minot zanjiri samaradorligini oshirish orqali xarajatlarni kamaytirish va mijozlar uchun qo'shimcha qiymat yaratish globallashuv sharoitida barqaror raqobat ustunligining asosiy manbai ekanligini ko'rsatadi. Christopher ta'minot zanjirlarining moslashuvchanligi, ya'ni "agility" tamoyili, zamonaviy o'zgaruvchan global bozor sharoitida korxonalarning raqobatbardoshligini ta'minlovchi muhim omil ekanligini alohida ta'kidlaydi [1].

Nagorny o'z ilmiy ishlarida globallashuv sharoitida intellektual texnologiyalarning iqtisodiy munosabatlarga ta'sirini chuqur tahlil qilgan. U sun'iy intellekt, Big Data, IoT va avtomatlashtirish kabi zamonaviy texnologiyalar an'anaviy sanoat tarmoqlarini, jumladan to'qimachilik sanoatini tubdan o'zgartirish salohiyatiga ega ekanligini asoslaydi. Tadqiqotchi to'rtinchi sanoat inqilobini axborot asridan raqamli-intellektual bosqichga o'tish jarayoni sifatida tavsiflaydi hamda logistika va ta'minot zanjirlarida ushbu texnologiyalarni qo'llash global savdo raqobatbardoshligiga transformatsion ta'sir ko'rsatishini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Stenford universiteti professori Hau L. Leening "The Triple-A Supply Chain" nomli tadqiqotida global ta'minot zanjirlarida barqaror raqobatbardoshlikka erishish uchun uch asosiy xususiyat — chaqqonlik (agility), moslashuvchanlik (adaptability) va uyg'unlik (alignment) — zarur ekanligi ilmiy asosda ko'rsatib berilgan. Lee axborot shaffofligini ta'minlash va hamkorlikni kuchaytirish orqali tadbirkorlik subyektlari global bozorlarda barqaror o'rin egallashi mumkinligini ta'kidlaydi. Shuningdek, u global ta'minot zanjirlarini loyihalashda turli mamlakatlardagi soliqlar, bojxona to'lovlari va institutsional omillarni hisobga olish muhimligini qayd etadi [3].

O'zbek iqtisodchisi A. M. Alimovning "Globallashuv va mintaqaviy iqtisodiy integratsiya jarayonlari" nomli monografiyasida globallashuvning iqtisodiy munosabatlarga ta'siri mintaqaviy integratsiya nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Muallif Markaziy Osiyo mamlakatlari, jumladan O'zbekiston uchun xalqaro savdo munosabatlarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab beradi. Uning ilmiy qarashlari ta'minot zanjirlarini modernizatsiya qilish va O'zbekistonning jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuv jarayonini chuqurlashtirish zarurligini asoslaydi [4].



Mamlakatimiz iqtisodchisi M. S. Mirsaidovning “Xalqaro iqtisodiy munosabatlar” nomli o’quv qo’llanmasida xalqaro savdo munosabatlarining huquqiy va iqtisodiy asoslari, tashqi savdoni tartibga solishning tarif va notarif usullari hamda O’zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatini rivojlantirish istiqbollari keng yoritilgan. Muallif eksport salohiyatini oshirish va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning muhimligini ilmiy asoslaydi. Ushbu yondashuvlar tadqiqotimizda ilgari surilgan xulosalar uchun muhim nazariy asos bo’lib xizmat qiladi [5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot globallashuv sharoitida tadbirkorlik faoliyatida xalqaro savdo munosabatlarini rivojlantirishda intellektual texnologiyalarning ta’minot zanjirlaridagi barqaror raqobatbardoshlikka ta’sirini o’rganishga qaratilgan. Tadqiqotda kompleks metodologik yondashuv qo’llanilib, u sifatli va miqdoriy tahlil usullarining uyg’unligiga asoslanadi.

Mazkur yondashuv tadqiqot muammosini ko’p qirrali va chuqur tahlil qilish imkonini beradi hamda olingan natijalarning ishonchililigini ta’minlaydi. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, kontent-tahlil va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Shuningdek, ta’minot zanjirlarida intellektual texnologiyalarni qo’llash samaradorligini baholashda analitik va mantiqiy yondashuvlar qo’llanildi.

Tadqiqotning metodologik asosini ilmiy adabiyotlar, xalqaro tajriba hamda zamonaviy raqamli texnologiyalarning rivojlanish tendensiyalari tashkil etadi. Ushbu metodologik yondashuv tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyatini oshirish va ularni tadbirkorlik faoliyatida qo’llash imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ilmiy adabiyotlarda ta’minot zanjirlarini boshqarish beshta asosiy jarayonni o’z ichiga oladi: rejalashtirish, xarid qilish, ishlab chiqarish, taqsimlash va qaytarish. Ushbu jarayonlar o’zaro uzviy bog’langan bo’lib, ta’minot zanjirining umumiy samaradorligini belgilaydi.

Rejalashtirish ta’minot zanjirlarini boshqarishning strategik bosqichi bo’lib, mahsulotga bo’lgan talabni qondirish maqsadida barcha resurslarni samarali taqsimlash va boshqarishni nazarda tutadi. Ushbu jarayon ta’minot zanjiri orqali iste’molchiga minimal xarajatlar bilan yuqori sifatli mahsulot yoki xizmat yetkazib berishni ta’minlaydigan boshqaruv mexanizmlarini shakllantirish bilan tavsiflanadi.

Xarid qilish jarayoni zarur tovar va xizmatlarni yetkazib beruvchi subyektlarni tanlash, narxlar va yetkazib berish shartlarini belgilash, shuningdek to’lov mexanizmlarini tashkil etishni o’z ichiga oladi. Bu jarayon moddiy oqimlar va xizmatlar harakatini muvofiqlashtirish hamda yetkazib beruvchilar bilan samarali hamkorlikni ta’minlashga qaratilgan.

Ishlab chiqarish bosqichi mahsulotni yaratish, sinovdan o’tkazish, qadoqlash va uni yetkazib berishga tayyorlash bilan bog’liq faoliyatlarni qamrab oladi. Ushbu jarayon ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va sifat standartlariga rioya etishni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Taqsimlash jarayoni ombor tizimlarini tashkil etish, distribyutorlik tarmoqlarini shakllantirish, buyurtmalarni boshqarish, mahsulotni iste’molchiga yetkazib berish va to’lovlarni qabul qilishni o’z ichiga oladi. Bu bosqich ta’minot zanjirining oxirgi iste’molchi bilan bog’liq eng muhim qismi hisoblanadi.

Qaytarish jarayoni esa mahsulotlarning qayta harakatini, ya’ni iste’molchilar yoki boshqa zanjir ishtirokchilari tomonidan qaytarilgan tovarlarni boshqarishni o’z ichiga oladi. Zamonaviy sharoitlarda ushbu jarayon yopiq tsikl iqtisodiyoti tamoyillarini joriy etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Raqamli intellektual texnologiyalarning jadal rivojlanishi, ayniqsa logistika va ta’minot zanjirlarini boshqarishda ularning keng qo’llanilishi, korxonalar va ularning ta’minot zanjirlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi yangi metodologik yondashuvlarni shakllantirmoqda. Shu bilan birga, raqamlashtirish darajasi yuqori bo’lgan ta’minot zanjirlarida barqarorlik va moslashuvchanlik ko’rsatkichlari yanada yaqqol namoyon bo’ladi.

So’nggi yillarda yuz bergan global jarayonlar, xususan pandemiya va geoiqtisodiy o’zgarishlar ta’minot zanjirlari faoliyatiga sezilarli ta’sir ko’rsatdi. Bir tomondan, onlayn savdo va yetkazib berish xizmatlari jadal rivojlandi, iste’molchilar xatti-harakatlari o’zgardi. Ikkinchi tomondan, logistika tizimlarida uzilishlar yuzaga kelib, yetkazib beruvchilar o’rtasidagi an’anaviy aloqalar qayta shakllandi. Bu holat korxonalarni yanada moslashuvchan va raqamlashtirilgan boshqaruv tizimlariga o’tishga undadi [6].

Hozirgi geoiqtisodiy sharoitda kompaniyalar bir qator muammolarga duch kelmoqda, jumladan talabni aniqlik bilan prognozlash, yetkazib beruvchilarga yuqori darajada bog’liqlik, logistika xarajatlarining ortishi, axborot almashinuvi samaradorligining pastligi va moliyaviy xavf-xatarlar mavjudligi. Ushbu muammolarni hal etishda intellektual texnologiyalar muhim vosita sifatida namoyon bo’lmoqda.



To'qimachilik sanoati Osiyo davlatlari iqtisodiyotida muhim o'rin tutadi va O'zbekiston ushbu yo'nalishda global ta'minot zanjirlarining faol ishtirokchisi hisoblanadi. Raqobat muhitining o'zgarishi va yangi talablarning shakllanishi ushbu sohada innovatsion yondashuvlarni joriy etishni taqozo etmoqda. Shu munosabat bilan sanoat Internet of Things (IoT) infratuzilmasini rivojlantirish, intellektual ishlab chiqarishni joriy etish va ilmiy-texnologik innovatsiyalarni rag'batlantirish ustuvor yo'nalishlar sifatida qaralmoqda (1-jadval).

1-jadval. Xalqaro ta'minot zanjirlari ishtirokchisi bo'lgan kompaniyalarning asosiy muammolari¹

Muammo	Tavsif
Talabni bashorat qilish	Yetkazib beruvchilar, ishlab chiqaruvchilar, distribyutorlar va chakana sotuvchilar ayrim tovar guruhlariga bo'lgan talabning keskin oshishi, boshqalariga esa pasayishiga yetarli darajada tayyor bo'lmadi. Yetkazib berish narxлари va savdo rejaları pandemiya, sanksiyalar hamda hududiy cheklovlar to'liq inobatga olinmagan holda shakllantirilgan. Natijada yetkazib berishdagi uzilishlar, ayrim tovarlar bo'yicha tanqislik yoki aksincha, talab yetishmasligi tufayli ortiqcha zaxiralarning to'planishi yuzaga keldi. Bu esa logistika jarayonlarini qayta tashkil etish zaruratini keltirib chiqardi va talabni bashorat qilish jarayonini murakkablashtirdi.
Yetkazib beruvchilarga bog'liqlik	Ta'minot zanjirlari mavjud resurslarini safarbar etgan holda yuzaga kelayotgan o'zgarishlarga moslashishga harakat qildi. Yetkazib beruvchilarga yuqori darajada bog'liq bo'lgan kompaniyalar resurslarini qayta taqsimlashga va alternativ yetkazib berish yo'nalishlarini rivojlantirishga majbur bo'ldi. Bu holat ta'minot zanjirlarining barqarorligini oshirish zaruratini yanada kuchaytirdi.
Logistika va yetkazib berish	Ayrim tovar guruhlariga bo'lgan talabning ortishi va taklifdagi cheklovlar logistika tizimlariga qo'shimcha yuklama berdi. Kompaniyalar yangi yetkazib berish sxemalari va muqobil transport yo'llarini izlashga majbur bo'ldi. Transport-logistika xizmatlariga bo'lgan talabning ortishi marshrutlarni optimallashtirish zaruratini yuzaga keltirdi, shu bilan birga yetkazib berish muddatlari uzayib bordi. Ayrim hollarda tovarlarni yetkazib berish muddati 1,5–2 barobarga oshdi yoki iqtisodiy jihatdan yuqori xarajat talab qiladigan darajaga yetdi.
Axborot o'zaro ta'sirining samarasizligi	Pudratchilar bilan ishlashning an'anaviy usullari zamonaviy sharoitda yetarli samaradorlikni ta'minlamadi. Axborot tizimlari mavjud bo'lishiga qaramay, avtomatlashtirish darajasining pastligi sababli kompaniyalar talabni tezkor tahlil qilish va prognozlash imkoniyatiga ega emas. Bundan tashqari, ta'minot zanjiri ishtirokchilari o'rtasida raqamlashtirish darajasining turlicha bo'lishi axborot almashinuvining samaradorligini pasaytiradi.

Mazkur siyosatning amalga oshirilishi ko'plab davlatlarning to'qimachilik sanoatida axborotlashtirish darajasini oshiradi, natijada mamlakat ta'minot zanjiri bo'g'inlarini joylashtirish uchun yanada jozibador hududga aylanadi va jahon to'qimachilik sanoatining faol ishtirokchisi sifatidagi mavqeini mustahkamlaydi. Shu bilan birga, axborotlashtirish darajasining oshishi hamda yopiq ta'minot zanjirlariga o'tishning raqobatbardoshlikka ta'siri masalasi hozirgi kunda ilmiy jihatdan chuqur o'rganishni talab etadigan dolzarb yo'nalish bo'lib qolmoqda.

Raqobatbardoshlik ishlab chiqarish samaradorligini baholashda uzoq yillardan buyon asosiy ilmiy tushunchalardan biri hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, investitsiyalar hajmi, mahsulot diversifikatsiyasi, ichki va tashqi bozorlardagi ulush, eksport salohiyatini rivojlantirish kabi omillar raqobatbardoshlikni oshirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, sanoat klasterlari shakllanishi, texnologik tashqi ta'sirlar, tarmoq uyushmalarida ishtirok etish hamda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining mavjudligi ham muhim omillar sifatida e'tirof etiladi [7]. So'nggi yillarda axborot texnologiyalari va bilimga asoslangan iqtisodiyotning rivojlanishi natijasida sanoat raqobatbardoshligi konsepsiyasi yanada kengayib, innovatsiyalar, energiya samaradorligi, ekologik omillar va yopiq ta'minot zanjirlariga o'tish kabi jihatlarni o'z ichiga olgan holda rivojlanmoqda.

Intellektual texnologiyalarni joriy etish orqali to'qimachilik ta'minot zanjiri raqobatbardoshligini oshirish konsepsiyasi zamonaviy raqobatbardoshlik va barqaror rivojlanishning integratsiyalashgan modeliga asoslanadi. Joriy sharoitda raqobatbardoshlik, avvalo, marketing strategiyalari va mijozga yo'naltirilganlik orqali ta'minlanadi. Bu esa iste'molchi ehtiyojlarini aniqlash, bozor tendensiyalariga moslashish, xizmatlar sifatini oshirish hamda logistika jarayonlarini tezkor va qulay tashkil etishni nazarda tutadi. Mazkur maqsadlarga erishishda mijozlar haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilish, intellektual texnologiyalarni joriy etish va raqamli logistika tizimlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Logistika xarajatlarini kamaytirish, yetkazib berish samaradorligini oshirish, qayta ishlash oqimlarini rivojlantirish orqali yopiq ta'minot zanjirlariga o'tish, mehnat unumdorligini oshirish va axborot oqimlarini integratsiyalash barqaror raqobatbardoshlikning asosiy komponentlari hisoblanadi. Ta'minot zanjirlarida integratsiyalashgan axborot oqimlari ma'lumot uzatish xarajatlarini kamaytiradi va boshqaruv jarayonlarining

1 Muallif ishlanmasi



shaffofligini ta'minlaydi. Bu esa zanjir ishtirokchilari o'rtasida hamkorlikni kuchaytirib, umumiy tizimning moslashuvchanligini oshiradi.

Shu bilan birga, boshqaruv innovatsiyalari ham raqobatbardoshlikni ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi. Menejment va texnologiyalarning uyg'unlashuvi natijasida qaror qabul qilish jarayonlari tezlashadi, xarajatlarni kamayadi va biznes-modellar optimallashtiriladi. Inson kapitalining rivojlanishi ushbu jarayonning ajralmas qismi bo'lib, bilim va ko'nikmalarni oshirish, elektron ta'lim tizimlarini joriy etish hamda amaliy o'qitish orqali ta'minlanadi. Bu esa tashkilot ichida bilim almashinuvini kuchaytiradi va yuqori moliyaviy natijalarga erishishga xizmat qiladi [8].

Moddiy oqim innovatsiyalari, jumladan ikkilamchi resurslardan foydalanish, yangi materiallar ishlab chiqish, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va intellektuallashtirish orqali ta'minot zanjiri samaradorligi oshiriladi. Texnologik konvergensiya yangi mahsulot turlarining yaratilishiga va yuqori texnologiyali tarmoqlardan an'anaviy sanoat sohalariga bilim transferining kuchayishiga olib keladi. Bu esa yangi bozor imkoniyatlarini shakllantiradi va innovatsion rivojlanishni rag'batlantiradi [9].

Xalqaro ta'minot zanjirlarida hisob-kitoblar tizimi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamli valyutalardan foydalanish istiqbollari bugungi kunda faol muhokama qilinib, amaliy qo'llanilishga kirib bormoqda. Raqamli to'lov tizimlari bir qator afzalliklarga ega bo'lib, ular orasida operatsion xarajatlarni kamaytirish, tranzaksiyalar tezligini oshirish, firibgarlikni aniqlash imkoniyatlarini kengaytirish va moliyaviy nazorat samaradorligini oshirish muhim o'rin tutadi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar yordamida katta hajmdagi tranzaksiyalarni qayta ishlash imkoniyati kengayib, chegaralararo to'lovlar tezligi va ishonchligi oshadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Globallasuv sharoitida tadbirkorlikda xalqaro savdo munosabatlarini rivojlantirish muammosini o'rganish shuni ko'rsatadiki, zamonaviy raqobat muhitida muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun korxonalar o'z ta'minot zanjirlarini intellektual texnologiyalar asosida tubdan modernizatsiya qilishi zarur. Amalga oshirilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy xulosalar shakllantirildi.

Birinchidan, globallasuv jarayoni xalqaro ta'minot zanjirlarini murakkablashtirib, tadbirkorlik subyektlaridan mijozga yo'naltirilgan raqamli yondashuvlarni qo'llashni talab etmoqda. Intellektual texnologiyalar yordamida iste'molchi ehtiyojlarini aniqlash va ularni tezkor qondirish joriy raqobatbardoshlikning muhim omili sifatida namoyon bo'ladi.

Ikkinchidan, xalqaro savdo munosabatlarini kengaytirishda logistika xarajatlarni optimallashtirish, axborot oqimlarini integratsiyalash hamda yopiq ta'minot zanjirlariga bosqichma-bosqich o'tish barqaror raqobat ustunligini shakllantirishning strategik yo'nalishlari hisoblanadi. Bu jarayon tadbirkorlik subyektlarining global bozordagi o'rnini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Uchinchidan, boshqaruv innovatsiyalari va inson kapitalini rivojlantirish, xususan, elektron ta'lim texnologiyalarini keng joriy etish uzoq muddatli raqobatbardoshlikning muhim omili hisoblanadi. Tadbirkorlik subyektlarining global bozordagi muvaffaqiyati ularning bilim, texnologiya va innovatsion yondashuvlardan samarali foydalanish darajasiga bevosita bog'liqdir.

To'rtinchidan, xalqaro ta'minot zanjirlarida raqamli valyutalarga asoslangan hisob-kitob tizimlarini joriy etish chegaralararo moliyaviy operatsiyalar samaradorligini oshirishning istiqbolli yo'nalishi hisoblanadi. Ushbu tizimlar tranzaksiyalar tezligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va to'lovlarning shaffofligini ta'minlash orqali xalqaro savdo jarayonlarini soddalashtirish imkonini beradi.

Beshinchidan, texnologik konvergensiya an'anaviy sanoat tarmoqlarida, jumladan to'qimachilik sanoatida yangi mahsulot turlari va bozor segmentlarining shakllanishiga zamin yaratmoqda. Bu esa tadbirkorlik subyektlari uchun xalqaro savdo munosabatlarini kengaytirishning yangi imkoniyatlarini ochib beradi.

Yuqoridagi xulosalar asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi:

- ta'minot zanjirlarini boshqarishda intellektual texnologiyalarni keng joriy etish va ularni barcha jarayonlarga integratsiyalash;
- logistika va axborot infratuzilmasini rivojlantirish orqali ta'minot zanjiri samaradorligini oshirish;
- inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan uzluksiz ta'lim tizimini kengaytirish;
- raqamli moliyaviy texnologiyalarni joriy etish orqali xalqaro hisob-kitoblarni soddalashtirish;
- yopiq tsikl iqtisodiyoti tamoyillarini qo'llash orqali resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash.

Globallasuv sharoitida tadbirkorlik subyektlarining xalqaro savdo faoliyatini samarali rivojlantirish intellektual texnologiyalarni keng qo'llash, innovatsion boshqaruv yondashuvlarini joriy etish va raqamli infratuzilmani takomillashtirish bilan uzviy bog'liqdir. Kelgusidagi tadqiqotlar ushbu omillarning miqdoriy ta'sirini baholash metodologiyasini ishlab chiqish hamda yangi raqamli savdo mexanizmlarini amaliy jihatdan o'rganishga yo'naltirilishi maqsadga muvofiqdir.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Christopher, M. (2000). The agile supply chain: Competing in volatile markets. *Industrial Marketing Management*, 29(1), 37–44.
2. Nagorny, K., Lima-Monteiro, P., Barata, J., & Colombo, A. W. (2017). Big data analysis in smart manufacturing: A review. *International Journal of Communications, Network and System Sciences*, 10(3), 31–58.
3. Lee, H. L. (2004). The triple-A supply chain. *Harvard Business Review*, 82(10), 102–113.
4. Alimov, A. M. (2016). *Globallashuv va mintaqaviy iqtisodiy integratsiya jarayonlari*. Toshkent: O'quv qo'llanma.
5. Mirsaidov, M. S. (2006). *Xalqaro iqtisodiy munosabatlar*. Toshkent: Iqtisod-Moliya.
6. Liu, H., Wang, P., & Chen, P. (2023). The impact of digital transformation on supply chain capabilities and supply chain competitive performance. *Sustainability*, 15(13), 10107.
7. Zhang, L., & Wang, Y. (2024). Digital supply chain: Literature review of seven related technologies. *Manufacturing Review*, 11, 8.
8. Sosnowski, P. C., & Cyplik, P. (2022). Closed-loop supply chains and circular economy: The possibilities of interplay. *LogForum*, 18(4), 505–513.
9. Jing, H., & Fan, Y. (2024). Digital transformation, supply chain integration and supply chain performance: Evidence from Chinese manufacturing listed firms.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
